



Article

Yashil iqtisodiyot sharoitida O‘zbekistonda kuzatilayotgan o‘zgarishlar: tendensiyalar va istiqboliy yo‘nalishlar

O.R. Sheraliyev ^{*1}, D.Sh. Sotiboldiyeva ¹, A.I. Ikromov ¹

¹ Tashkent International University of Education, Tashkent, 100207, Uzbekistan
M24020@tiue.uz (O.Sh.), t505@tiue.uz (D.S.)

* Correspondence: M24020@tiue.uz (O.Sh.)

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida yuz berayotgan asosiy o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida institutsional islohotlar, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishning kengayishi, transport va shaharsozlikda ekologik yo‘nalishning kuchayishi, shuningdek, chiqindilarni boshqarish va qishloq xo‘jaligidagi yangilanishlar yoritilgan. Rivojlanishni sekinlashtirayotgan omillar — moliyaviy resurslarning yetishmasligi, infratuzilmaning eskirganligi va ekologik me‘yorlarni kuchaytirish zarurati ham ko‘rib chiqiladi. Maqola yashil iqtisodiy o‘tishni tezlashtirishga xizmat qiladigan amaliy takliflarni ilgari suradi va O‘zbekistonning ushbu yo‘nalishda mintaqaviy yetakchiga aylanish salohiyatiga egaligini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik siyosat, ekologik modernizatsiya, yashil islohotlar, O‘zbekiston, resurslardan samarali foydalanish.

Changes observed in Uzbekistan under the conditions of a green economy: trends and prospective directions

Oybek R.Sheraliyev ^{*1}, Dirlabo Sh.Sotiboldiyeva ¹, Asadbek I.Ikromov ¹

¹ Tashkent International University of Education, Tashkent, 100207, Uzbekistan
M24020@tiue.uz (O.Sh.)

Abstract:

This article examines the key transformations taking place in Uzbekistan during the transition to a green economy. The study highlights institutional reforms, the growing use of renewable energy, changes in transport and urban development, as well as the modernization of waste management and agricultural practices. Particular attention is given to the challenges that hinder rapid progress, including insufficient investment, outdated infrastructure and the need for stronger environmental standards. The paper proposes practical recommendations to accelerate green economic growth and strengthen sustainable development mechanisms. The conclusions emphasize that Uzbekistan possesses significant potential to become a regional leader in green economic transformation.

Keywords: green economy; sustainable development; renewable energy; environmental policy; ecological modernization; green reforms; Uzbekistan; resource efficiency.

Kirish

Mamlakatimizda oxirgi yillarda iqtisodiy rivojlanishning ekologik barqarorlikka mos modeliga o‘tish jarayoni jadallashtirilib, “yashil iqtisodiyot” tamoyillari davlat siyosatining asosiy yo‘nalishiga aylantirilmoqda. Bunday yondashuv energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanadigan resurslardan foydalanishni kengaytirish, tabiiy resurslarga bosimni kamaytirish va yashash muhitining sifatini oshirishga qaratilgan. Ushbu ishda respublikamizda amalga oshirilayotgan ekologik modernizatsiya jarayonlari, ularning ijtimoiy-iqtisodiy ta’siri hamda istiqboldagi vazifalar tahlil qilinadi.

Iqtibos: Sheraliyev, Sotiboldiyeva and Ikromov. Yashil iqtisodiyot sharoitida O‘zbekistonda kuzatilayotgan o‘zgarishlar. 2025, 3,2, 7.
<https://doi.org/10.61587/ActaEducation-2025-3-00007>

Olingan: 18.01.2025
Tuzatilgan: 22.03.2025
Qabul qilingan: 28.05.2025
Nashr qilingan: 29.06.2025

Copyright:



Tadqiqot metodologiyasi

Mualliflar o'z ilmiy izlanishlarida quyidagi metodlardan foydalanib, O'zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyot bo'yicha kuzatilayotgan o'zgarishlar, asosiy tendensiyalar va istiqbolli yo'nalishlarni atroflicha aniqlash va tahlil qilishni maqsad qilganlar. Ushbu tadqiqot usullarining birinchisi analitik uslub bo'lib, unda mavjud ilmiy adabiyotlar, hukumat hisobotlari, xalqaro tashkilotlarning (UNDP, World Bank, IEA) statistik materiallari tahlil qilindi. Qo'shimcha ravishda statistik tahlil o'tkazilib, raqamli ma'lumotlar (qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarish, yashil investitsiyalar, CO₂ chiqindilari) yillik o'sish sur'ati va ulushi tahlil qilindi. Bundan tashqari, O'zbekistonning hozirgi iqtisodiy holatini yashil iqtisodiyot bilan bog'liq holda jadval va diagrammalar orqali yanada yaqqol tasvirlashga harakat qilindi.

Natijalar va muhokama

“Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi” 2019-yilda qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biri bo'lib, u O'zbekistonning ekologik barqaror rivojlanish borasidagi aniq maqsad va yo'nalishlarini belgilab berdi [1]. Strategiyada energiya iste'molini qisqartirish, qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish, suv-yer resurslaridan oqilona foydalanish, shahar ekologiyasini yaxshilash kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bunga ko'ra, yangi institutsional tuzilmalar tuzish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar va tashabbuslar haqida ushbu maqolada qisqacha to'xtalib o'tamiz.

O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo'yicha agentlik (QTM agentligi) faoliyati kengaytirildi — agentlik mamlakatda “yashil energetika”ni rivojlantirishga ixtisoslashgan davlat tuzilmasi sifatida shakllangan [2]. So'nggi yillarda uning vakolatlari va funksiyalari sezilarli darajada kengaydi. Agentlikning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: qayta tiklanuvchi energiya (quyosh, shamol, bioenergiya, geotermal) loyihalarini rejalashtirish va muvofiqlashtirish, xususiy va xorijiy investorlarni jalb qilish, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, energetik tahlil, energiya auditi va monitoring ishlari hamda aholi va korxonalarining “yashil texnologiyalar”ga o'tishini qo'llab-quvvatlash.

Bundan tashqari, mamlakatimizda Ekologiya va iqlim o'zgarishi vazirligi vakolatlari kengaytirilganligi bilan birga yashil moliyalashtirish va uglerod bozori bo'yicha tajribaviy mexanizmlar sinovdan o'tkazilayotganligini ham alohida ta'kidlab o'tish joiz.

Olib borilayotgan ishlar yangi investitsiyalarni jalb qilishga xizmat qilishi bilan birga, ekologik boshqaruv tizimini takomillashtirish uchun ham zamin yaratmoqda. Bundan tashqari, mamlakatda quyosh va shamol elektr stansiyalari barpo etilishi energetik mustaqillikni kuchaytirish va karbon izini kamaytirishga xizmat qilmoqda. Navoiy, Samarqand va Jizzaxda yirik quyosh stansiyalari ishga tushirildi, Qoraqalpog'iston va Buxoroda katta shamol parklari qurilmoqda. Jismoniy shaxslar va xususiy iste'molchilar o'rtasida ham kichik quyosh panellaridan foydalanish ko'lami kengaymoqda. Sanoatda energiya auditi amaliyoti joriy qilinishi korxonalarda energiya tejankor texnologiyalarga ehtiyojni oshirdi. Bino va inshootlarda issiqlikni tejovchi materiallardan foydalanish talab darajasiga ko'tarilmoqda [3].

O'zbekistonda elektromobil bozorining rivoji tezlashib, zaryadlovchi stansiyalar soni oshmoqda. Ekologik talablarga mos avtobuslar hamda elektr avtobuslar jamoat transporti tizimiga bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Shahar markazlarida yashil maydonlar barpo etish, ekologik bog'lar yaratish, velosiped va piyodalar yo'laklarini ko'paytirish orqali urbanizatsiya jarayonlari yanada ekologik shaklga o'tmoqda. Suv tanqisligini yumshatish maqsadida tomchilatib sug'orish, aqlli irrigatsiya tizimlari, lazerli tekislash texnologiyalari keng qo'llanilmoqda [4]. Bu esa hosildorlikni oshirish bilan birga suv sarfini sezilarli darajada kamaytirmoqda. Organik dehqonchilik, sho'rlangan yerlarni rekultivatsiya qilish, agroforesting tizimlari va ekologik sertifikatsiyaga asoslangan ishlab chiqarish modeliga qiziqish kuchaygan. Bundan tashqari, hududlarda zamonaviy saralash majmualari, plastmassa, shisha va qog'oz chiqindilarini qayta ishlaydigan korxonalar soni ortib bormoqda. Yashil texnologiyalar sohasida chiqindidan energiya olish bo'yicha ham sinov loyihalari joriy qilinmoqda.

Bu borada aholining ekologik madaniyatini oshirish katta ahamiyat kasb etadi. Bunday loyihalarining eng yiriklari sifatida maktablarda ekologik fanlarni o'qitish kengaytirilmoqda, aholining chiqindilarni ajratish madaniyatini shakllantirish bo'yicha axborot kompaniyalari olib borilmoqda.

Quyidagi ma'lumotlar asosida O'zbekistonning qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarish, yashil investitsiyalar va CO₂ chiqindilari bo'yicha so'nggi yillardagi o'zgarib borayotgan ko'rsatkichlarini ko'rishimiz mumkin.

Table 1. Dynamics of indicators related to the green economy in Uzbekistan.

Jadval 1. Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotga bog'liq ko'rsatkichlar dinamikasi.

Ko'rsatkich	2010	2015	2020	2023
Qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarish (GWh)	250	550	1,200	1,700
Yashil investitsiyalar (million USD)	120	350	650	850
CO ₂ chiqindilari (million tonna)	40.5	39.0	36.0	34.5

Manba: Egamberdiev Kh. [5] ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, yashil iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalar 7 baravar oshdi — bu davlat va xususiy sektor tomonidan ekologik loyihalarga kiritilayotgan sarmoyalar ortib borayotganini bildiradi. CO₂ chiqindilarining kamayishi iqtisodiy o'sish bilan birga karbon emissiyasini pasaytirish bo'yicha ijobiy tendensiyaning aks ettiradi. Qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarish esa 2010–2023-yillarda 580% dan ortiq o'sdi — bu strategik barqarorlik va energiya diversifikatsiyasini ko'rsatadi.

Table 2. Annual growth trend of Uzbekistan's renewable energy capacity

Jadval 2. O'zbekistonning qayta tiklanuvchi energiya quvvatining yillik o'sish tendensiyasi

Yil	Umumiy RE quvvati (MW)	Gidroelekt quvvati (MW)
2014	1,872	1,871
2016	1,883	1,880
2018	1,919	1,915
2020	2,025	2,021
2022	2,478	2,225
2023	2,668	2,415

Manba: Egamberdiev Kh. [5] ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Biz ma'lumotlarni tahlil qilish jarayonida 2014–2023-yillarda qayta tiklanuvchi energiya quvvati sezilarli darajada kengayganiga guvoh bo'lamiz. Bundan tashqari, gidroenergetika ulushi asosan o'zgarish holatida saqlanib, 2023-yilda umumiy RE quvvati 2,668 MW ga yetdi. Bu, albatta, yashil iqtisodiyotga qaratilgan e'tibor samarasidir. Mamlakatimizda olib borilgan islohotlar samarasini yana bir muhim ko'rsatkich orqali ko'rishimiz mumkin: qayta tiklanuvchi energiya ulushi boshqa manbalarga nisbatan kam bo'lsa-da, barqaror o'sish tendensiyasiga ega.

Yuqoridagi ko'rsatkichlar qayta tiklanuvchi manbalar O'zbekiston elektr energiya tizimidagi ulushining boshlang'ich bosqichda ekanini ko'rsatadi, biroq strategik rejalar uni oshirishni nazarda tutadi. Elektr energiyaga bo'lgan talab va iste'molning o'sish sur'ati ham kundan kunga yaqqol o'zgarib bormoqda. Bu esa energiya samaradorligi va qayta tiklanuvchi energiyaga ehtiyojni oshirmoqda. Buni quyidagi diagramma asosida yanada yaqqol tasvirlash mumkin.

Mamlakatimizda elektr energiyaga bo'lgan talabning yillik o'sishi yangi yashil energiya loyihalarini amalga oshirishni ustuvor yo'nalish sifatida belgilaydi. Mamlakatimizda yashil iqtisodiyot sohasida so'nggi yillarda erishilgan muvaffaqiyatli natijalar sifatida qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarish va yashil investitsiyalar sezilarli darajada oshayotganligi, CO₂ chiqindilarining pasayishi ijobiy indikatorga ega ekanligi, ya'ni ekologik barqarorlik bo'yicha milliy strategiyaning natijasi sifatida ko'rilayotganligini misol qilib keltirish mumkin. Bundan tashqari, elektr energiyaga bo'lgan talab ortmoqda. Bu esa energiya samaradorligi va yashil energiya loyihalarini rivojlantirishni talab qiladi. Shu bilan birga, qayta tiklanuvchi resurslar ulushi asta-sekin oshmoqda. Masalan, gidroelekt, quyosh va shamol energiyasi bo'yicha o'sish istiqbollari mavjud.

Olib borilayotgan islohotlarga qaramay, qayta tiklanuvchi energiya ulushining hali ham pastligi hamda energiya va kommunal infratuzilmaning qisman eskirganligi mamlakatimizda muammo bo'lib qolmoqda. Bundan tashqari, yashil investitsiyalar yetishmasligi, chiqindi qayta ishlash darajasining pastligi va malakali ekolog mutaxassislar yetishmasligi yurtimiz oldida hali juda katta masalalar

borligini anglatadi. Bu to‘siqlarni bartaraf etish izchil siyosat va moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni talab etadi. Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha quyidagi takliflarni taqdim etamiz.




Figure 1. Shares in Uzbekistan's electricity system.

Rasim 1. O‘zbekiston elektr energiya tizimidagi ulushlar.

Manba: Toshboyev B. B. [6] ma'lumotlari asosida tuzilgan.




Figure 2. Annual growth in electricity demand.

Rasim 2. Elektr energiyaga bo‘lgan talabning yillik o‘sishi.

Manba: Saidov M. S. [7] ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Yirik quyosh va shamol energiyasi loyihalari uchun xususiy investorlarni jalb qilish, ya'ni xalqaro va mahalliy investorlar uchun qulay investitsiya muhitini yaratish, qayta tiklanadigan energiya loyihalarini amalga oshirish zarur. Ushbu jarayonda yerlarni taqsimlash tartib-qoidalarini soddalashtirish, barqaror tarif siyosatini o'rnatish, soliq imtiyozlarini berish va davlat-xususiy sheriklik (DXSH) mexanizmlarini keng qo'llash katta natijalarga erishish imkonini beradi. Shuningdek, uzoq muddatli elektr energiyasini sotib olish bo'yicha bitimlarni (PPA) kafolatlash investorlar uchun xavf-xatarlarni kamaytirishga xizmat qiladi [8].

Elektr energiyasini saqlash texnologiyalariga investitsiyalarni yo'naltirish — ya'ni strategik ahamiyatga ega bo'lgan qayta tiklanadigan energiya manbalarining uzluksiz ishlashi uchun elektr energiyasini saqlash tizimlarini joriy etish zarur. Shu maqsadda:

- katta quvvatli akkumulyator stansiyalarini barpo etish;
- kimyoviy va mexanik energiyani saqlash uchun innovatsion texnologiyalarni jalb qilish;
- mahalliy ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish zarur.

Bunday tizimlar elektr uzatish tarmoqlaridagi yuklamani muvozanatlashga va elektr ta'minoti ishonchligini oshirishga xizmat qiladi.

Uy xo'jaliklarida quyosh panellarini subsidiyalash tizimini kuchaytirish — ya'ni quyosh panellari o'rnatayotgan aholiga subsidiyalarni kengaytirish va rag'batlantiruvchi mexanizmlarni takomillashtirish muhim. Bunga quyidagilar kiradi: o'rnatilgan quvvat birligiga qarab differensial subsidiyalar berish, foizsiz yoki past foizli kreditlar ajratish, soliq imtiyozlari joriy etish hamda panel o'rnatgan uy xo'jaliklariga ortiqcha energiyani milliy tarmoqqa sotish imkoniyatini (net-metering) yengillashtirish. Bu chora-tadbirlar aholi orasida energiya mustaqilligini oshirishga va elektr energiyasini tejashga xizmat qiladi. Yashil obligatsiyalar bozorini shakllantirish, banklarda ekologik loyihalar uchun imtiyozli kreditlar tizimini joriy etish [10] hamda korxonalar uchun ESG (Environmental, Social, Governance) mezonlariga asoslangan reyting tizimini yaratish sanoat korxonalarining ekologik, ijtimoiy va boshqaruv masalalaridagi mas'uliyatini oshiradi. Ushbu tizim orqali korxonalarning ekologik samaradorlik darajasi, resurslardan foydalanish koeffitsiyenti, chiqindilarni qisqartirish bo'yicha natijalari, boshqaruvning ochiqlik darajasi baholanadi. Reytinglar investorlarga korxonalar mustahkamligi haqida ishonchli ma'lumot beradi va iqtisodiyotda "yashil raqobat" muhitini vujudga keltiradi. Ushbu takliflarning amalga oshirilishi mamlakatimizning nafaqat siyosiy-iqtisodiy jihatdan, balki ekologik jabhada ham katta yutuqlarga erishishiga xizmat qiladi [9].

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish yo'nalishidagi islohotlar keng ko'lamda olib borilmoqda va ular milliy iqtisodiyotning keyingi taraqqiyot yo'nalishini belgilab beruvchi asosiy omil sifatida ko'rinmoqda. Qayta tiklanuvchi energiya, ekologik transport, resurslarni tejoychi texnologiyalar, chiqindilarni qayta ishlash infratuzilmasi va agroekologik yondashuvlar mamlakatning barqaror taraqqiyotiga sezilarli ulush qo'shmoqda. Shu bilan birga, mavjud muammolarni yechish va yashil iqtisodiyotni yanada chuqurlashtirish orqali O'zbekiston mintaqaviy miqyosda ekologik innovatsiyalar poytaxtiga aylanishi mumkin. Bu yo'lda davlat, xususiyl sektor va fuqarolik jamiyatining hamkorligi asosiy o'rin tutadi.

Mualliflarning hissalari

Konseptualizatsiya, O.SH.; metodologiya, D.S.; formal tahlil, A.I.; tadqiqot olib borish, O.SH., D.S. va A.I.; ma'lumotlarni saralash, D.S. va A.I.; original matnni yozish, D.S. va A.I.; matnni ko'rib chiqish va tahrirlash, O.SH.; vizualizatsiya, A.I.; rahbarlik va loyiha boshqaruvi, O.SH. Barcha mualliflar qo'lyozmaning nashr etiladigan yakuniy versiyasini o'qib chiqdi va ma'qulladi.

Authors' contribution

Conceptualization, O.S.; methodology, D.S.; formal analysis, A.I.; investigation, O.S., D.S. and A.I.; data curation, D.S. and A.I.; writing—original draft preparation, D.S. and A.I.; writing—review and editing, O.S.; visualization, A.I.; supervision and project administration, O.S. All authors have read and agreed to the published version of the manuscript.

Moliyalashtirish

Tadqiqot tashqi moliyalashtirish olmagan.

Funding source

This research received no external funding.

Etika tamoyillariga muvofiqlik

Qo'llanilmaydi. Tadqiqotda insonlar yoki hayvonlar ishtirok etmagan.

Ethics approval

Not applicable. The study did not involve humans or animals.

Nashrga xabardor qilingan rozilik

Qo'llanilmaydi.

Consent for publication

Not applicable.

Ma'lumotlar mavjudligi to'g'risidagi bayonot

Tadqiqotda foydalanilgan ma'lumotlar maqola matni, jadvallari, chizmalari va keltirilgan manbalarda mavjud.

Data Availability Statement

The data used in this study are available within the article, its tables and figures, and the cited sources.

Rahmatnomalar

Mualliflar qo‘shimcha minnatdorlik bildirmaydilar.

Acknowledgments

The authors have no additional acknowledgments.

Manfaatlar to‘qnashuvi

Mualliflar manfaatlar to‘qnashuvi mavjud emasligini ma’lum qiladilar.

Conflict of interest

The authors declare no conflicts of interest.

Qisqartmalar

UNDP	United Nations Development Programme
IEA	International Energy Agency
QTM	Qayta tiklanuvchi energiya manbalari
CO ₂	karbonat angidrid
RE	qayta tiklanuvchi energiya
GWh	gigavatt-soat
MW	megavatt
USD	AQSh dollari
DXSH	davlat-xususiy sheriklik
PPA	Power Purchase Agreement
ESG	Environmental, Social and Governance

Adabiyot

- [1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son “2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori. Available online: <https://lex.uz/uz/docs/-4539502> (accessed on 27 July 2026).
- [2] Rasulev, D.M.; Shomuradova, D.U. Green Economy: Global Perspective and Uzbekistan’s Path. *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot* **2025**, *3*(3), 110–112. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15478399>.
- [3] Rashidova, O. Transition to “green economy” in Uzbekistan: Opportunities and challenges. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies* **2025**, *50*, 1–8. <https://doi.org/10.62480/tjms.2025.vol50.6499.pp1-8>.
- [4] Umarov, E.G‘. o‘g‘li. Transitioning to a Green Economy and Implementing Sustainable Technological Changes in Uzbekistan. *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot* **2023**, *1*(11–12), 1106–1111. https://doi.org/10.55439/GED/vol1_iss11-12/a415.
- [5] Egamberdiev, Kh. Green Structural Transformation in Uzbekistan: Green Finance and Eco-Innovation for Sustainable Industrial and Agricultural Development. *Innovation Science and Technology* **2025**, *1*(12), 93–100. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17857603>.
- [6] Toshboyev, B.B. Analysis of green economic growth indicators in Uzbekistan. *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot* **2025**, *3*(6), 1518–1525. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15803733>.
- [7] Saidov, M.S. O‘zbekiston Respublikasida energetika sohasida olib borilayotgan islohotlar. *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot* **2026**, *4*(2), 1522–1529. <https://doi.org/10.5281/zenodo.19274315>.
- [8] Malikov, N. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni shakllantirishda Xitoy va Rossiya investitsiyalarining qiyosiy tahlili. *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot* **2025**, *3*(6), 20–25. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15672883>.
- [9] Mirzayev, B.A. o‘g‘li. O‘zbekiston Respublikasini “yashil” iqtisodiyotga o‘tish istiqbollari. Muammolar va yechimlar. *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot* **2023**, *1*(10), 19–25. https://doi.org/10.55439/GED/vol1_iss10/a4.
- [10] Jiyanova, N.E.; Alimkhonova, G.E. Development of Green Finance in Uzbekistan in the Context of Sustainable Development. *Innovation Science and Technology* **2025**, *1*(4), 6–10. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17436277>.

Nashriyot javobgar emas/ eslatmasi: Barcha nashrlarda keltirilgan bayonotlar, fikrlar va ma’lumotlar faqat mualliflar va ishtirokchilarga tegishlidir, na Jurnal va na muharrirlar. Jurnal va muharrirlar,

mazkur kontentda keltirilgan har qanday g'oyalar, usullar, ko'rsatmalar yoki mahsulotlar natijasida insonlar yoki mulkka yetkazilgan har qanday zarar uchun javobgar emas.

Disclaimer of liability/Publisher's Note: The statements, opinions and data contained in all publications belong exclusively to individuals. The authors and participants, and the Journal and the editors. The journal and the editors are not responsible for any damage caused to people or property resulting from any ideas, methods, instructions or products mentioned in the content.